



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2021- YILNING YANVAR-OKTABR OYLARIDA NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi – 65,2 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 5 835,4 ming so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi – 5 957,9 mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi – 57,9 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari - 116,7 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari – 114,6 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 957,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 229,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari




2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan, tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni almashtirishga yordamlashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **237,5** mlrd. so'mga o'sdi va **744,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **149,9** mlrd. so'mga oshgan va **579,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning sentabr oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **20,7** mlrd. so'mga pasaydi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning sentabr oyiga nisbatan 2020- yil oktabr oyida xizmatlar hajmi **15,2** mlrd. so'mga pasaygan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	5 957,9	116,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	241,8	116,5
Moliyaviy xizmatlar	1 346,3	126,6
Transport xizmatlari	1 041,1	115,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	876,9	112,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	218,7	109,9
Savdo xizmatlari	1 834,0	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	119,4	119,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	194,8	122,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	68,9	122,2
Ijara xizmatlari	103,9	128,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	97,4	118,3
Shaxsiy xizmatlar	147,8	115,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	317,0	146,6
Boshqa xizmatlar	226,8	115,7

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **30,8** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**22,6** %), transport (**17,5** %), shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**5,3** %) bo'yicha qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz pasayish qayd etilib, ularning ulushi **1,1 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,0 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,1 %**.




Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi (**46,6 %**), ijara xizmatlarida (**28,1 %**), moliyaviy xizmatlar (**26,6 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**22,4 %**), sog'liqni saqlash (**22,2 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**19,0 %**), kompyuterlarni ta'mirlash (**18,3 %**) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**16,5 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlarda (**6,1 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar




●●●● 2020- y. yanvar-oktabr —◆— 2021- y. yanvar-oktabr

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **132,5** %. Boshqa xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **12,6** %.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,8 %** ni tashkil etib, bu **1 834,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 560,1** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,0 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2021-y.
yanvar-
oktabr

1 834,0
mlrd. so'm



1 560,1
mlrd. so'm

106,1 %



Hajmning
o'sishi

O'sish
sur'ati

96,3 %

2020-y.
yanvar-
oktabr



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rttdan uch qismidan ko'prog'ini, aniqrog'i **83,2 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **8,6 %** ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida eng kam hajm ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **8,2 %** ga yetdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)




Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdo ulushi **82,6 %** ga yetdi.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2021- yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 346,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi **1 042,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning ulushi **22,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **304,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati **132,5** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,9 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,9 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Sug'urta bo'yicha xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,1 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,9 %** ga to'g'ri kelgan.


Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,0 %**.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi 1 041,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2020- yilning shu davriga nisbatan 15,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi 17,5 % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 84,2 % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi 86,2 % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-oktabr

2021- y. yanvar-oktabr

33,2

33,6

66,8

66,4



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish


2021- yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **66,4** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **66,8** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**2020- y.
yanvar-oktabr**

206,0
mlrd. so'm

111,5 %

4,4 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

35,8 mlrd. so'mga

**2021- y.
yanvar-oktabr**

241,8
mlrd. so'm

116,5 %

4,1 %


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi **95,0 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-oktabr



2021- y.
yanvar-oktabr



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**


Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **194,8 mlrd. so'm**ga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,3 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **122,4 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-oktabr




68,9 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

1,1 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

122,2 %




O'sish sur'ati


2020- y.
yanvar-oktabr



52,2 mlrd. so'm



1,1 %



105,5 %

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

162,1 mlrd.
so'm

218,7 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2020- y.
yanvar-oktabr

2021- y.
yanvar-oktabr

87,5 %

109,9 %

O'sish
sur'ati

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar


2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **56,6** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2020- y.
yanvar-
oktabr

2021- y.
yanvar-
oktabr



Yashash bo'yicha xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **85,6** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,8** % ni tashkil etgan.



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

5 835,4
ming so'm

Hajmning
o'sishi

1 121,8
ming so'mga

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 835,4** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **4 713,6** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,0 %** da qayd etilgan.


O'sish sur'ati

114,6 %



2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

15 002 birlik



2 082 birlikka o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi



2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

116,1 %



65,2 %


Ularning umumiy sonidagi ulushi

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **65,2 %**, sanoat **16,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,4 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,4 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **64,6 %** ni, sanoat **16,3 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,3 %** ni, qurilish **7,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**53,0** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **9,5** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,7** % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,7** % ga teng bo'ldi.

Savdo – 53,0

Boshqa turdagi xizmatlar – 29,0

Yashash va ovqatlanish – 9,5

Tashish va saqlash – 4,7

Sog'liqni saqlash – 2,1

Axborot va aloqa – 1,7


2021- yil yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **57,9 %** ni tashkil etdi

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **85,3 %** ga to'g'ri keldi.

1- noyabr holatiga

2020- y.

83,7 %

2021- y.

85,3 %

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-63-31